

**ADABIY TARIXIY MANDALARNI O`RGATISH ORQALI
TALABALARDA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASHNING
PEDAGOGIK ASOSLARI**

Nadira Rametullayeva Polatovna

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrası stajor-o`qituvchisi
+998907238767*

Annotatsiya: Ushbu maqolada manbalar, ularni o`rganish, xususan adabiy tarixiy manbalarni o`rgatish orqali talabalarda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari, adabiy tarixiy manbalar va ulardagi ta`lim tarbiyaga oid qarashlar keltirilgan va pedagogik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: manbalar, adabiy manbalar, vatanparvarlik, talabalarda vatanparvarlik, O`rxun –Enasoy yodgorliklari.

Tarixni unutgan xalq, jamiyat o`z yo`lini yo`qotadi. Bunday xalq va jamiyatning kelajagi yo`q. Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari, matematika, fizika, kimyo, sanoat, menejment -bularning hammasi kerak, albatta. Lekin, avalambor tarixni bilish - bu hayotiy zarurat. Hayotni bilish, biz qaysi asrda yashayotganimizni anglash bu hammamizning burchimiz.[1-331 b]

O`tmishni bilishga, tariximizni o`rganishga bizga eng avvalo tarixiy manbalarimiz xizmat qiladi.

Manbalar, tarixiy manbalar — o`tmishda odamzod qo`li bilan bunyod etilgan tarixiy jarayon izlarini o`zida aks ettiruvchi va kishilik jamiyati tarixini o`rganish imkonini beruvchi hozirgi kungacha saqlangan har qanday osori atiqqa, yozma manba, ma`naviy (til, e`tiqod, urf-odat) qadriyatlar. Manbalar tarixiy tadqiqotlarning asosiy poydevori hisoblanadi. Ularni keng ko`lamda sinchiklab o`rganmasdan turib kishilik jamiyatining tadrijiy taraqqiyoti tarixini tahlil qilib bo`lmaydi. Manbalarining xili nihoyatda ko`p, ammo ma`lum darajada aniq va to`la ma`lumotlarga ega. Manba majmuasi cheklangan. Yozuv hali yuzaga kelmagan ibtidoiy jamoa davridan faqat moddiy madaniyat qoldiqlari (turar joy, makon, manzil, mehnat qurollari) saqlangan xolos. Ulardan, asosan, ibtidoiy jamiyat davri hayotini, qisman qadimiy dunyo va o`rta yerlar tarixini tadqiq etishda foydalaniladi.

Adabiy manbalar-bu syujet asosida tarixiy voqealar va shaxslar haqida hikoya qiluvchi asarlar. Ushbu adabiy manbalarni o`rganish insoniyatga juda katta ilm va hayotiy tajriba berishi ayni haqiqatdir. Adabiy manbalar uzoq vaqtlar o`tib tabiiyki tarixiy manbalarga aylanadi. Ularni o`rganish, tahlil qilish orqali ushbu manbalarda keltirilgan ta`limiy-tarbiyaviy g`oyalarni anglab ularni yosh-avlod ongiga singdirish

hamda ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hozirgi pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biridir.

Badiiy asarlar har doim ijtimoiy ongning ajralmas qismi bo'lib kelgan. Uning ijtimoiy-axloqiy nuanslari, mazmun darajasi va mavzusi ko'pincha davrning falsafiy va ijtimoiy fikrining xususiyatlari bilan belgilanadi. Badiiy adabiyot doimiy ravishda tarixiy voqelikni anglashning yangi usullarini ochib beradi, voqelikni aks ettirish uchun yangi imkoniyatlarni izlaydi.

Ibtidoiy tuzum kishilarining orzu-istaklari, o'y-fikrlari, maqsad va intilishlarini yoritishga xizmat qilgan afsonalarning ko'pchiligi bizga eng qadimgi yodgorliklar - “Avesto”, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarlari orqali ma'lumdir. Qadimgi miflarda kishilarning tabiiy ofatlar va yovuz kuchlardan saqlanish borasidagi dastlabki tasawurlari tirik mavjudot boshiga falokat keltiruvchi tabiiy kuchlarga qarshi mardonavor kurashgan inson va uning xatti-harakatlari orqali ifoda etilgan. Miflar asosida yaratilgan afsonalarning qahramonlari tomonidan olib borilgan harakatlar qahramonlik eposlarining yaratilishi uchun zamin hozirlagan. Qahramonlik eposlarida vatanga bo'lgan muhabbat, erk va ozodlik uchun kurash, yurtining har bir qarich yerini asrash, qardon qabilasining farovonligi, to'kin-sochinligini ta'minlash yo'lida jonini fido etish, qabilaning sha'ni, sharafi, ori va nomusi uchun kurashish tuyg'ulari tarannum etilgan. Zarina, Sparetra, To'maris hamda Shiroq (Siroq)lar tomonidan ko'rsatilgan yuksak vatanparvarlik na'mimalari, Zarina va Striangey, Zariadr va Odatida muhabbatlari, mardlik va qahramonlik timsollari bo'lgan Rustam va Siyovush (XorazmQang' eposi)larning jasoratlari to'g'risida hikoya qiluvchi epopeyalar shular jumlasidandir.[1-335b]

Eng qadimgi adabiy tarixiy manbalardan yana biri bu Turkiy xalqlarning yozma ma'rifiy yodgorliklari bo'lib, pedagogika tarixi, xususan, yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bular «Urxun-Enasoy yodgorliklari», «Irq bitigi» («Ta'birnoma») kabi manbalar bo'lib, ulardan yangi davr kishisini tarbiyalashda foydalanish muhim vazifalardan sanaladi. Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turkiy-run yozuvida bitilgan Urxun-Enasoy bitiklarini «toshlarga bitilgan kitoblar» ham deb ataydilar. O'ziga xos xat(yozuv)da bitilgan bu bitiklar eramizning VII-VIII asrlarida yozib qoldirilgan. Toshlarga bitilgan mazkur yodgorliklar ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Ma'lumki, eramizning VI asri o'rtalariga kelib, Oltoy, Ertis va Markaziy Osiyo hududlarida yashovchi turkiy qabilalarning Turk xoqonligi davlati tarkib topdi. Bu xoqonlik G'arbda Vizantiya, Janubdan Eron va Hindiston, Sharqdan Xitoy bilan chegaradosh bolgan. Turk xoqonligi Turkyut davlati deb ham atalgan. Xoqonlik 604 -yili Sharqiy va G'arbiy xoqonlikka ajralgan. Eramizning 745 -yiliga kelib esa Turk xoqonligi barham topgan. Turk xoqonligi asosan uch kishi: Bilga xoqon (Mog'uliyon), Kultegin, Tunyukuklar tomonidan boshqarilgan. Bilga xoqon - xoqon, Kultegin -

sarkarda, Tunyuquq esa - vazir boiib, ulaming hamkorhgida boshqarilgan davlat ushbu davrda ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan. Bitiktoshlarda turk xoqonlarining yurishlari, yurishlar davrida alp kishilar, sarkardalar ko'rsatgan jasoratlar, ularning bilimli, mard, xalqparvar ekanliklari bayon etiladi. O'z vatanining mustaqilhgi uchun kurashish, xalqni asoratdan olib chiqish, ularning birdamhgini ta'minlash xoqonlar Bo'min, Istami, Eltarish, Eltarishning o'g'illari - Bilga xoqon, lashkarboshi Kultegin, ma'naviy otalari Tunyuquqlarning zimmasiga tushgani hikoya qilinadi.

Masalan, Kultegin bitigida uning ta'rifi berilgan. Kultegin xalqparvar, tadbirkor, xalqning kelgusi taqdirini ham oylaydigan jonkuyar sarkarda sifatida ta'riflanadi. U o'z jonidan vatan taqdiri, xalq manfaatini yuqori qo'ygan shaxs. Kultegin Eltarish xoqonining kichik o'g'li. U 731 -yil 27 fevralda qirq etti yoshida vafot etadi. Bitiktosh 732 - yili o'matilgan. Ushbu bitiktoshda barcha voqealar Kulteginning akasi Bilga xoqon tilidan hikoya qilinadi. Kultegin bitigida Bilga xoqonning og'a-inilari va qarindosh-urug'lariga murojaat qilib, ularning xatolari tufayli turk elida ko'p falokatlar yuz berganini bayon etganligi ifodalanadi. Turkiylarning harbiy yurishlari, ularga qo'shni bolgan tabgachlarning bosqincliiligi tufayli xalq boshiga tushgan kulfatlar haqida so'z yuritiladi. Xoqon tomonidan xalqqa qilingan murojaatda turkiy xalqlarni hokimiyatni mustahkamlash, o'zaro urushlarga chek qo'yish, tinch-totuv boiib yashashga undashdek ezgu maqsad ham ifadalangan. Kultegin esa, dono, bahodir, jasur inson sifatida tasvirlanadi. Kultegin bitigida Bilga xoqon eng muhim insoniy xislatlar, hayotiy zaruriyatlar borasidagi fikrlari nasihat, o'git tarzida bayon etadi. Turk xalqi o'zaro birlashmagani, bir-birlariga ishonmaganliklari uchun hiyla va firib qurboni boiib, tabg'achlar ularni qul va cho'ri qilgani, oqibatda ular qashshoq, erksiz va mute bo`lib qolganliklarini kuyunib so'zlaydi. So'ng turk xalqini qanday qilib birlashtirgani, ukasi Kulteginning jasorati tufayli el bosqinchilar hujumidan omon qolgani, to'q va farovon hayot kechirgani, u jasur va engilmas alp yigitlardan ekani bayon etiladi.

Ikkinchi bitiktosh - Bilga xoqon bitigidir. Bu bitiktosh Eltarish xoqoninng katta o'gli - Kulteginning akasi Bilga xoqon sharafiga 735 -yili o'rnatilgan. Bilga xoqon 734 -yili ellik yoshida o'z yaqinlari tomonidan zaharlab o`ldirilgan. Bu bitig ham Yo'llig' tegin tomonidan yozilgan. Bilga xoqon bitigida xalqning tinch-totuv yashagani, Bilga xoqon davrida tinchlik hukmron bo`lgani, u davlatni adolat bilan boshqargani, turkiy xalqlami birlashtirgani, o'z yurtini boy- badavlat etib, iqtisodiy jihatdan mustahkamlagani mahorat bilan tasvirlangan. Bu bitigda xalq xoqonidan, vatanidan ayrilmasa, betashvish hayot kechirishi ifodalanadi. O'z navbatida davlat boshliqlarining hatti-harakatlari bayon etiladi. Keyin Bilga xoqon yurishlari haqida hikoya qilinadi. Bilga xoqon turk eli o'rtasida elparvar xoqon deb tanilgan edi. «Bilga» so'zining o'zi ham «dono» degan ma'noni anglatadi. U turk xalqining vatani abadiy boiishi uchun kurashadi. Xalqqa qarata shunday o'git qiladi: «Vatanni saqlab qolmoq, faqat xoqonga emas, xalqqa ham bog'liq. Ajdodlarimizning xato va yutuqlari buning

dalilidir. Xalq o'z xoqonining yo'l-yo'riqlarini amalga oshirmasa, boshiga ko'p kulfatlar tushadi. Xoqon o'ta ishonuvchan boimasligi, boshqalaming gapini o'ylab, mulohaza qilib amalga oshirishi lozim. Samimiy so'z bilan yolg'onni farqlay ohshi kerak. qattiqqo'l xoqon o'z xalqiga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Ishonuvchan boisa, yaxshi-yomonni ajrata olmasa, fojiaga yo'l ochiladi, m am lakatda tartibsizlik yuzaga keladi».

Bilga xoqon tarqoq xalqni birlashtirdi, oyoqqa turg'izadi, yurtda farovon hayot qaror topadi. U xalq farovonligini ta'minlash davlat boshlig'ining burchi, mamlakatning ozodligi, xalqning osoyishtaligi uning moddiy farovonligiga bog'Uq deb biladi. Bitiklarda yurtboshining boylikka hirs qo'yishi xalqning nochor hayot kechirishiga olib keluvchi sabab ekanligi qayg'u bilan ifodalanadi. U o'z xalqiga shunday murojaat etadi:

«Men yashadim, turk beklari, turk xalqim. Bu xoqoningdan, bu beklaringdan, yeringdan, suvingdan ayrilmasang, turk xalqi, o'zing ezgulik ko'rajaksan, betashvish bo'lajaksan».

Ushbu bitik toshlardagi yozuvlardagi ma'rifiy qarashlari inson shaxsining shakllanishida, uning kamolotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda turkiy xalqlarning inson xulq-odobi va uni tarbiyalashga oid dastlabki tasavvurlari ifodalangan. Ushbu manbalarni talabalarga o'rgatar ekanmiz ularda ham vatanparvarlik, vatanga sodiqlik va sadoqatlik ruhida tarbiyalashga erishgan bo`lamiz. Kultegin va Bilga xoqonlarning yurt tinchligi vaxalq manaati uchun bur kuch g`ayratini bilimni ishga solib harakat qilgani hamda yurtni jipslashtira olganini ko`rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matn azarova , M.K.Shirinov S .Hafizov. Umumiy pedagogika . - T .: « Fan va texnologiya», 2018, 528 bet.
2. Hashimov Komiljon. H71 Pedagogika tarixi: Darslik. Q2/K.Hashimov, S.Nishonova. — T.rAlisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005.— 304 b.
3. B.Ahmedov O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. — T.: O'qituvchi, 1991-yil.